

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

NORMATOV SUNNAT AXMADOVICH

**QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ TURIZMINI
RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Normatov Sunnat Axmadovich

Qashqadaryo viloyati qishloq turizmini rivojlantirishning geografik
xususiyatlari..... 3

Норматов Суннат Ахмадович

Географические особенности развития сельского туризма в
Кашкадарьинской области 19

Normatov Sunnat Axmadovich

The geographical features of developing rural tourism
in the Kashkadarya region..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

NORMATOV SUNNAT AXMADOVICH

**QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ TURIZMINI
RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Gr367 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmanov Ma'rufdjan Rustamovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Komilova Nilufar Qarshiboyevna
geografiya fanlari doktori, professor

Jumayev Xayrullo Xayetovich
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 18-aprel soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (99) 776-7725, faks: (0366) 239-19-36; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 4-aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil 26-mart №6-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B. Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A. Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

V.A. Rafikov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globalizatsiya jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmogʻini rivojlantirish orqali muhim masalalarni yechish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda. Butun jahon turizm tashkiloti (UNWTO) va Jahon savdo tashkiloti (WTO)ning maʼlumotlariga koʻra, jahon boʻyicha 2023-yilda xalqaro turizm bozorida 1,4 trillion dollarlik xizmatlar eksporti amalga oshirilgan¹. Mazkur soha dunyodagi koʻpgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy oʻrin tutmoqda. Hozirgi global dunyoda turizm nafaqat odamlarning dam olish va koʻngil ochar faoliyatlari bilan bogʻliq boʻlib qolmay, balki mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, qishloq turizmini barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahonda mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlarda asosan hududlar tabiatining oʻziga xosligi, togʻ, togʻoldi va tekislik, daryolar, choʻl va vohalar hamda turli landshaft zonalaridagi asosiy rekreatsiya resurslarini turizmdagi ahamiyatiga qaratilgan. Bu borada hududlardagi mavjud ekologik, agroturizm, etnografik, madaniy, tarixiy va tabiiy merosi bilan sohani rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Qishloq hududlarida turizm sohasini jadal rivojlantirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni taʼminlashga qaratilgan kompleks tadqiqotlarni olib borishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda turizm sohasi tarmoqlarida turistlarga servis xizmatlari va uning turlarini rivojlantirish, har bir hududning turistik jozibadorligi hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda u yerlarda turizmni rivojlantirish boʻyicha qator ishlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da «turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni taklif qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish» hamda «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini taʼminlash»² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiiy sharoiti va geotizimlari turlicha boʻlgan Qashqadaryo havzasi togʻ va togʻoldi landshaftlarini ekoturistik imkoniyatlarini tadqiq etish hamda viloyat qishloq joylarda turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ - 5233-son, 2024-yil 5-iyundagi “Respublika hududlarining turizm salohiyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ -

¹ <https://www.untourism.int/ru/events>

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

212-son qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infiratuizilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-20-son Qarori, 2024-yil 12-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-21-son Qarori, 2023-yil 28-noyabrdagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm ob‘ektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-376-son Qarori, 2024-yil 5-dekabrda “G‘elon turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-424-son Qarori, 2018-yil 7-fevralda PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2018-yil 3-fevralda PF-5326-son «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq joylarida turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanning ko‘pgina qirralari bilan uzoq xorij davlatlaridan I.G.Kol, A.Gettner, R.Blanshar, A.Mariotti, V.Unitsiker, Corneliu Iatu, A.Yu.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, Yu.A.Vedenin, S.R.Yerdavletov, P.N.Zachinyayev, I.I.Pirojnik, Yu.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiyev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan.

Qishloq turizmini shakllantirishning nazariy-konseptual asoslari, xorijiy tajribalar, iqtisodiy ahamiyati kabi masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan Y.Dorjiyeva, L.Markov, L.Shukina, Y.Limetti, V.Kundus, R.Xikmatov kabilarning ilmiy izlanishlarida qisman o‘z aksini topgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi va geograf olimlardan R.Alimov, D.Kurbanova, A.Rasulov, M.Raxmatov, T.Jo‘rayev, M.Kamilova, A.Alimov, A.Abduvaliyev, N.Xolmatov, R.Ro‘ziyev, M.Xusainov, G.Zohidov, D.Mirzaxalilova, Ch.Murodov, N.Maxmasobirova, D.Begimova, S.Ergashev kabi tadqiqotchilar mazkur yo‘nalishda bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mahalliy olimlardan turizm geografiyasining ayrim muammolari bo‘yicha Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, Sh.A.Azimov, A.Zokirov, F.Komilova, A.S.Soliyev, A.N.Nigmatov, T.Toshmurodov, B.Husanboyev, N.To‘xliyev, A.Taksanov, A.Yusupov, R.Xayitboyev, N.T.Shamuratova, X.Mamatqulov X.X. Jumayev kabi mutaxassislar shug‘ullangan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Janubi-g'arbiy O'zbekiston geosistemalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy geografik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatida qishloq joylarida turizmni shakllanishi va rivojlanishining asosiy muammolarini ilmiy yechimiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Respublikada ilk bor foydalanilgan qishloq turizmi nazariy asoslari ishlab chiqilgan va Qashqadaryo qishloq turizmining geografik jihatlarini ilmiy asoslash;

Qashqadaryo viloyatining ArcGIS dasturi yordamida tuzilgan qishloq turistik rayonlashtirish, qishloq turistik obyektlari, tarixiy yodgorliklari va diniy qadamjolarini o'zida aks ettiruvchi 1:1500000 masshtabli karta yaratish;

Qashqadaryo viloyatining turistik qishloqlarini aks ettiruvchi yangi istiqbolli marshrutlar ishlab chiqish;

Qashqadaryo viloyati qishloqlarida agroturizm, ekoturizm, etnoturizm va boshqa turizm turlarini turistik marshrutlarga kiritish va baholash.

Qashqadaryo viloyatining qishloq turizmini kompleks rivojlantirishda turistik qishloqlarning tabiiy, madaniy, tarixiy, ziyorat, agroturizm, gastronomik, sport, ekoturizm va rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda sayyohlik tashriflari bilan bog'liq xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatining turistik qishloqlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Viloyatda qishloq joylarida turizmni tashkil etish va rivojlantirishning hududiy muammolarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari Tadqiqot jarayonida hududiy tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik, ekonometrik modellashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, tanlanma, sotsiologik so'rovnoma, SWOT tahlili va GAT texnologiyalaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: quyidagilardan iborat:

Respublikada ilk bor foydalanilgan qishloq turizmi nazariy asoslari ishlab chiqilgan va Qashqadaryo qishloq turizmining geografik jihatlarini ilmiy asoslangan;

Qashqadaryo viloyatining ArcGIS dasturi yordamida tuzilgan qishloq turistik rayonlashtirish, qishloq turistik ob'ektlari, tarixiy yodgorliklari va diniy qadamjolarini o'zida aks ettiruvchi 1:1500000 masshtabli kartalari yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatining turistik qishloqlarini aks ettiruvchi yangi istiqbolli marshrutlar ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyatining qishloq turizmini kompleks rivojlantirishda turistik qishloqlarning tabiiy, madaniy, tarixiy, ziyorat, agroturizm, gastronomik, sport, ekoturizm va rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda sayyohlik

tashriflari bilan bog'liq xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyatining qishloq joylarida turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan;

Viloyatda yangi turistik marshrutlar ishlab chiqilgan va viloyat turizm boshqarmasining istiqbolli rejasiga kiritilgan.

Qishloq turizmining hududiylik tamoyillari bo'yicha tadqiq etish asosida turizmning geografik joylashtirishga doir amaliy tavsiyalar berilgan;

Qishloqlarda tabiiy landshaft tuzilmalarini saqlab qolish, ulardan insonlar uchun turistik maqsadlarda foydalanish, qishloq turizmini barqarorlashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

Qashqadaryo viloyati qishloq turizmida turistik faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar va xorijiy turistlar sonining o'zgarish dinamikasi prognoz ko'rsatkichi ichlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi va ularning hududiy boshqarmalari ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Asosiy natijalar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan metodologik hamda uslubiy taklif va tavsiyalar, ishlab chiqilgan prognoz natijalari asosida viloyat qishloq turizmini kompleks rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati viloyatdagi qishloq turizmini kompleks rivojlantirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida turizm geografiyasi kabi fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, sohaga oid darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyati qishloq turizmini rivojlantirishning geografik xususiyatlarini hududiy tashkil etish va baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Respublikada ilk bor foydalanilgan qishloq turizmi nazariy asoslari va Qashqadaryo qishloq turizmining aniqlangan geografik jihatlaridan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo'mitasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi

turizm qo‘mitasining 2025-yil 15-iyuldagi 03-10-17-6423-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mintaqada joylashgan turistik imkoniyati yuqori qishloqlarda turistik oqimining istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilash imkonini bergan;

Qashqadaryo viloyatining ArcGIS dasturi yordamida tuzilgan qishloq turistik rayonlashtirish, qishloq turistik obyektlari, tarixiy yodgorliklari va diniy qadamjolarini o‘zida aks ettiruvchi 1:1500000 masshtabli kartalaridan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2025-yil 15-iyuldagi 03-10-17-6423-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, viloyat hududi bo‘yicha yangi turistik marshrutlar yaratish, qishloq turizimini rivojlantirish imkonini beruvchi alohida hududlarni ajratib olish, shuningdek, turistik qishloqlar turizimni rivojlantirish strategiyasini jadallashtirish imkoniyati yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatining turistik qishloqlarini aks ettiruvchi yangi istiqbolli marshrutlardan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2025-yil 15-iyuldagi 03-10-17-6423-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yangi qishloq turizm marshrutlar hamda ushbu marshrutlar yo‘nalishida xizmat ko‘rsatish infratuzilmani yanada rivojlantirish imkoniyati oshirilgan;

Qashqadaryo viloyatining qishloq turizimini kompleks rivojlantirishda turistik qishloqlarning tabiiy, madaniy, tarixiy, ziyorat, agroturizm, gastronomik, sport, ekoturizm va rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda sayyohlik tashriflari bilan bog‘liq xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo‘mitasining 2025-yil 15-iyuldagi 03-10-17-6423-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, viloyatda qishloq turizimini kompleks rivojlanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining abrobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida, 5 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida maqolalar(tezislar) muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta, shulardan O‘zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, shundan 3 tasi Respublika va 2 tasi ilmiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 151 bet bo‘lib, uning 122 beti matn qismidan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzuning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, uning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi qayd etilgan, ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning amaliyotda joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qishloq turizmini hududiy tashkil etishning geografik xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobi turizm va nazariy asoslarini o‘rganishga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Mazkur bobda qishloq turizmining hududiy tashkil etishning nazariy asoslari, qishloq turizmini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasi, O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan.

Qishloq turizmini hududiy tashkil etishning nazariy asoslariga yoritilgan bo‘lib, bu qishloq turizmi har qanday turist uchun juda ham maroqliligi asoslangan. Bu hayot talabi bo‘lib, doimo dala hovlilarini yoki boshqa joylarni ko‘p yillar davomida sinalgan va tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olinishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtda qishloq turizmi alohida daromad keltiradigan tur hisoblanib, dunyo turizm xizmat bozorida alohida o‘rin tutadi. Qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, shunga qaramay turizm ishlarida alohida o‘rin tutib, uni o‘rganib rivojlantirish alohida e‘tiborga loyiq. Qishloq turizmini rivojlantirishning bir qancha konsepsiyalari va u bilan bog‘liq variantlari mavjudligi, ularni tanlash hudud va rekreatsion tizimlarning tarixiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, qishloqning holati bilan belgilanadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab qishloq turizmi mahsuloti dastlab ikki shaklda shakllanishi mumkin: klassik qishloq turizmi doirasida yoki dam oluvchilarni joylashtirish bilan boshqa rekreatsion faoliyat turlari (tabiiy, ma‘rifiy, sport turizmi) asosida. Tanlangan rivojlanish vektori qishloq turizmining turizm faoliyatining boshqa turlari orasidagi o‘rnini va uni aniqlashga yondashuvlardagi farqlarni belgilaydi. Bugungi kunda Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirishning bir qancha tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan bo‘lib, bunda Respublikamizda bugungi kunda 11 mingdan ortiq qishloqlar mavjud bo‘lib, barcha qishloqlar o‘zining qaysi bir jihati bilan qishloq turizmi uchun obyekt bo‘la oladi (1-jadval).

Ayniqsa, tog‘ va tog‘oldi qishloqlari o‘zining rekreatsiya va go‘zal tabiati bilan ajralib tursa, ekoturizm va etnoturizm imkoniyatlariga ega bo‘lgan qishloqlarni hududiy tashkil etish hamda ziyorat turizmi maskanlari bilan ham qishloq turizmining obyekti bo‘la oladi.

Qishloq joylar asosan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi aholining hududiy tashkil etish shakli ekan, shu mohiyatdan geografiya, xususan, iqtisodiy va muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Qishloq joylar qator funksiyalarni (vazifalarni) bajaradi. Masalan, ularning iqtisodiy, ijtimoiy demografik, ekologik va boshqa funksiyalari mavjud.

**O‘zbekiston Respublikasida joylashgan moddiy madaniy meros
obyektlarining hududiy tarkibi* (2024 yil holatida)**


№	Hududlar	Modiy-madaniy meros obyektlari				Jami	Respublika bo‘yicha foizda
		Arxeologik	Arxitektura	Monumental	Diqqatga sazavor joylar		
1	Samarqand	989	552	36	34	1607	19,8
2	Qashqadaryo	1046	200	43	27	1311	16,4
3	Buxoro	228	507	78	18	829	10,7
4	Toshkent	621	8	73	126	828	10,3
5	Surxondaryo	445	36	42	41	566	6,8
6	Navoiy	340	70	22	5	437	5,4
7	Jizzax	269	100	61	6	427	5,7
8	Andijon	223	74	42	85	422	5,2
9	Farg‘ona	119	139	31	89	376	4,7
10	Toshkent sh.	24	288	43	0	357	4,6
11	Qoraqalpog‘iston Resp.	133	24	91	50	293	3,7
12	Namangan	154	98	8	16	274	3,6
13	Xorazm	35	135	86	6	261	3,2
14	Sirdaryo	27	7	41	4	78	1,0
Respublika bo‘yicha jami		4640	2241	698	512	8073	100
Foizda		57,5	27,8	8,5	6,2	100	

Jadval: muallif tomonidan statistik ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qashqadaryo viloyatida qishloq turizmini rivojlantirish omillari hamda imkoniyatlari”** deb nomlangan bobida Qashqadaryo viloyatida qishloq turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishning geografik jihatlari, Qashqadaryo viloyati qishloq turizmini rivojlantirish omillari, Qashqadaryo viloyati qishloq turizmining rivojlantirish imkoniyatlarini ijtimoiy-so‘rovnomalar orqali baholash va viloyatida qishloq turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishning geografik jihatlari o‘rganishga asoslangan bo‘lib Qashqadaryo viloyati 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan bo‘lib, maydoni 28,57 ming kv.km yoki respublika hududining 6,3 foizini egallaydi. Hududi jihatdan O‘zbekistonning ba’zi viloyatlaridan kichik bo‘lishiga qaramasdan, viloyat aholi soni bo‘yicha respublikada 3-o‘rinda turadi. Aholi soni 2024-yil ma’lumotiga ko‘ra 3639,3 ming aholi istiqomat qiladi. Bu shundan dalolat beradiki, viloyat aholisining zichligi o‘rtacha mamlakat ko‘rsatkichiga qaraganda ancha yuqoridir. Qashqadaryo viloyati ma’muriy jihatdan 14 ta qishloq tumanlari, 10 ta shahar va 117 ta shaharcha va 1042 ta qishloq aholi punktlari, 801 ta mahala fuqoralari yig‘inidan iborat. Viloyat qishloq turizm imkoniyatlarini baholash maqsadida Qashqadaryo viloyati qishloq turizmini rayonlashtirish kartasi ishlab chiqilib bu karta orqali viloyat qishloqlarini turistik imkoniyatlari quydagicha aks etgan. (1-rasm ma’lumotlari).

Umuman olganda 2-bobda Qashqadaryo viloyati qishloq turizmini rivojlantirish omillaridan qishloq turizmini rivojlantirish, avvalo qishloq aholisi bandligini ta’minlaydi, qolaversa soliq tushumlari muntazam oshadi, milliy urf-odatlar va an’analarni o‘rganishga qiziqishni orttiradi, qishloq ahlining o‘ziga xos hayot tarzi va an’anaviy qadriyatlari keng targ‘ib qilinadi, milliy xalq hunarmandchiligi yanada rivojlanadi, hududlarning tarixiy-madaniy merosi asrab-avaylanadi, qishloq joylarida zamonaviy ishlab chiqarish sohasi yanada rivoj topadi.

**QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ TURIZMINING
RAYONLASHTIRISH KARTASI**




1-rasm: Qashqadaryo viloyati qishloq turizmining rayonlashtirish kartasi.

Sayyohlar uchun mahalliy aholining o'ziga xos tarixi, an'analari, gastronomiyasi, madaniy-ma'naviy jihatdan rivojlanishi bilan yaqindan tanishish imkoniyati yuzaga keltiradi. Hozirgi vaqtda viloyat qishloq tumanlari va qishloqlariga mahalliy tashrifdan tashqari xorijiy turistlarning tashrifini alohida aytishimiz mumkin, misol tariqasida 2-rasm orqali viloyatga xorijiy turistlarning tashriflarini oylar miqyosida ko'rishimiz mumkin.

Ushbu 2- bobda Viloyat qishloq turizmining rivojlantirish imkoniyatlarini ijtimoiy-so'rovnomalar orqali baholangan bo'lib qishloq turizmining rivojlantirish imkoniyatlarini ijtimoiy-so'rovnomalar orqali biz qishloq turizmni rivojlantirish so'rovi asosida o'rganish orqali so'rovnomada qatnashgan qatnashchilarda Qashqadaryo qishloq turizmni rivojlantirish istiqbollari haqida ijobiy ma'lumotlar oldik. Raqamli texnologiyalardan foydalanib, telegram messengeriga dastur asosida so'rovnoma o'tkazdik va natijalar quyida shahar va qishloq aholisidan o'tkazilgan so'rovnoma quyidagicha o'z aksini topdi. O'rganilayotgan mintaqada aholini qishloq turizmiga bo'lgan qiziqishi shahar, hattoki qishloq aholisi uchun ham juda qiziqarli bo'ldi. Qishloq turizmi muammolarini tadqiq etish bo'yicha qilinadigan chora-tadbirlarni aniq tabaqalashgan holda, ishlab chiqish va amalga oshirish uchun imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **“Qashqadaryo viloyati qishloq turizmni rivojlantirish istiqbollari”** Respublikada turizm sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari sifatida rivojlanmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyati ham o'zining turizm salohiyati bilan viloyatlar orasida alohida ajralib turadi. Viloyatda turizm turlaridan qishloq turizmi bugungi kunda tez va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Qishloq turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasi muhim ahamiyatga ega bo'lib bu borada mutaxassislar fikrlari o'rganilib, tizimli va qiyosiy tahlil qilish hamda baholash orqali istiqbolli qishloqlarga infratuzilmaning rivojlanish yo'nalishlari belgilab olingan. Albatta, transport xizmat ko'rsatish turistik faoliyatining bir nechta tarkibiy qismini beradi. Transportni rivojlantirmasdan turib turizm tarmoqlaridan, ayniqsa, qishloq turizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Transport sayyohlarning turistik obyektlarga olib boruvchi asosiy transfer vazifasini bajariganligi uchun transport va turizm sohalari o'rtasida har doim bog'liqlik mavjud. Qishloq turizmi bevosita Shahar joylardan olis bo'lib, hududning tabiiy jozibadorligini ko'rish uchun turistlar bu joyga tashrif chog'ida bevosita va bil vosita transport bilan harakatlanadi. Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishda istiqbolli turistik qishloqlarga turmarshrutlar ishlab chiqish kabi masalalar yoritilgan. Mazkur bob Qashqadaryo viloyati qishloq turizmni rivojlantirish muammolari, Qashqadaryo viloyati qishloq turizmining rivojlanish istiqbollariga bag'ishlanganligi bilan tavsiflanadi. Viloyatda turizmni rivojlantirishda istiqbolli turistik qishloqlarga turmarshrutlar ishlab chiqish deb nomlangan bo'lib bunda asosan transport xizmat ko'rsatish turistik faoliyatning bir nechta tarkibiy qismini beradi. Transportni rivojlantirmasdan turib turizm tarmoqlaridan, ayniqsa, qishloq turizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Transport sayyohlarning turistik obyektlarga olib boruvchi asosiy transfer vazifasini bajariganligi uchun transport va turizm sohalari o'rtasida har doim bog'liqlik mavjud.

QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ TURIZMI MARSHRUTLARI KARTASI



TURIZM MARSHRUTLARI

1. Shahrisabz-Chiroqchi, Qalqama, Langar, Xo'jalimakan, Tarag'ay, Kitob, Hazrati bashir, Mingchinor, Mo'g'lon, Jovvuz, Madmon, Denovbola, Shahrisabz G'elon, Ko'l, Shahrisabz
2. Shahrisabz, Miraki, Hisorak, Suvtushar, Sarehashma, G'elon, Ko'l, Shahrisabz
3. Shahrisabz-Qamashi, Langarota, Chit, Maydanak, Qo'shko'l, Oqqishloq, Dukkanxona, G'uzor
4. Shahrisabz, Eskiyakkabog', Samoq, Tatar, Kaltaqo'l, Toshqur'on, Vori, Shahrisabz.
5. Shahrisabz, Eskiyakkabog', O'ra qishloq, Eshkent, Tutak, Cho'brun, O'g'un, Guldarasoy, Shahrisabz Duob Qarshi
6. G'uzor, Dehqonobod, To'dachorbog', Belboyli, Chilgaz, Qorasheva, Mug'lon, Jeymov, Pomuq, Qarshi

SHARTLI BELGILAR

- AHOLI PUNKTLARI**
- Viloyat markazi
 - Shahar
 - Shaharcha
 - Qishloqlar
- Aloqa liniyalari**
- A-378
 - A-380
 - M-39
 - R-89
- Gidrografiya**
- Daryolar
 - Ko'llar va suvomborlari

Masshtab 1:1 500 000

2-rasm. Qashqadaryo viloyati qishloq turizmi marshrutlari kartasi.

Qishloq turizmi bevosita Shahar joylardan olis bo‘lib hududning tabiiy jozibadorligini ko‘rish uchun turistlar bu joyga tashrif chog‘ida bevosita va bilvosita transport bilan harakatlanadi. Turistik imkoniyati yuqori bo‘lgan qishloq joylarga tashrif buyurganlarida esa har bir turistk imkoniyatga ega bo‘lgan qishloqlarga turmarshrutlar ishlab chiqilgan. Xususan, viloyatda turizm imkoniyatiga qarab qishloqlarga quydagi turmarshrutlab ishlab chiqildi (3-rasm). Qashqadaryo viloyati qishloq turizm marshrutlar kartasiga qarasangiz marshrutlash ishlab chiqilgan bo‘lib unga ko‘ra:

1. Shahrisabz, Chiroqchi, Qalqama, Langar, Tarag‘ay, Kitob, Hazrati Bashir, Mingchinor, Xo‘jailmakan, Mo‘g‘ilon, Jovvuz, Madmon, Denovbola Shahrisabz.

2. Shahrisabz, Qamashi, Langarota, Chit, Maydanak, Qo‘shko‘l Oqqishloq, Dukkanxona, Shahrisabz.

3. Shahrisabz, Miraki, Hisorak, Suvtushar, Sarchashma, G‘elon, Ko‘l, Shahrisabz.

4. Shahrisabz, Eski Yakkabog‘, Samoq, Tatar, Kaltaqo‘l, Toshqo‘rg‘on, Vori, Shahrisabz.

5. Shahrisabz, Eski Yakkabog‘, O‘rta qishloq, Eshkent, Tutak, Cho‘brun, O‘g‘un, Guldarasoy, Shahrisabz.

6. G‘uzor, Dehqonobod, To‘dachorbog‘, Belboyli, Chilgaz, Duob, Qarshi.

7. Qarshi, Rahimso‘fi, Koson, Maymanoq, Qoraqum, Esaboy, Mug‘lon, Jeynov, Pomuq, Qarshi kabi Marshrutlar ishlab chiqilgan.

Qashadaryo qishloqlari turizm resurslariga boy bo‘lib, ulardan samarali foydalanishda turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish, transport xizmatini yaxshi yo‘lga qo‘yish, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish asosiy omil hisoblanadi. Bu sohalarining rivojlanishi natijasida qishloqlarda yangi ish o‘rinlari ochiladi va mehnat resurslari ish bilan ta‘minlanadi, qishloqlardagi turistik – rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy daromad keltiradi va shu joyning ekologik holatini yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi. Qashqadaryo qishloq turizmi muammolarini tadqiq etish bo‘yicha qilinadigan chora-tadbirlarni aniq tabaqalashgan holda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda viloyat qishloq tumanlari orasida eng tashrif buyurgan mahalliy va xorijiy turistlar tashrifini 2-jadval orqali ko‘rish mumkin.

2-jadval

Xorijiy va mahaliy turistlar tashrif buyuradigan qishloqlar haqida ma‘lumot


№	Tuman	Qishloq (MFY) nomi	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O‘sish (foizda)
1	Shahrisabz	Miraki	190004	216000	278400	21.4
2	Shahrisabz	G‘elon	145521	168000	180000	11.2
3	Shahrisabz	Suv tushar	164500	186000	192000	8.1
4	Kitob	Bashir	190450	204000	267600	12.1
5	Kitob	Jovuz	64501	84000	96000	22.2
6	Kitob	Varganza	46010	42000	60000	16.6
7	Chiroqchi	Tarag‘ay	3840	6000	9600	58.1
8	Chiroqchi	Langar	4340	5400	6000	17.7
9	Yakkabog‘	Tatar	161000	185000	191000	9
10	Chiroqchi	Qazoq (Chiyal)	59000	63000	75000	12.8

Izoh. Manbaa viloyat statistik boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

Qishloq joylar bilan bog‘liq turizm turlarining nisbati “Klassik qishloq turizmi” sayohatchilar va dam oluvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Birinchi navbatda qishloq resurslari orqali tinchlik va osoyishtalik uchun to‘liq kiritilgan qishloq turizmi sohasi va turizmning faqat boshqa turlari bilan aloqada bo‘ladi. Amaliyotga ko‘ra, klassik qishloq turizmining mashhurligi uning murakkab turlariga qaraganda past; qishloqda dam olish turistik faoliyatning boshqa turlari bilan birlashtirilgan bo‘lsa, uchun masalan, agroturizm. Qishloqlarda aholi bandligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlar qabul qilingan iqtisodiyot sektori, shu jumladan Yevropa Ittifoqining rivojlangan mamlakatlari, Amerika Qo‘shma Shtatlarida juda mashhur bo‘lib, dam olish uchun foydalaniladi. Qishloq joylari shahar mehmonxonalariga arzon alternativ hisoblanadi. Qishloq turizmi va turizmning boshqa turlarining o‘zaro ta‘siri sodir bo‘ladi turli yo‘llar bilan. Masalan, chuqur integratsiyalashgan tabiat turizmi mahsuloti qishloq aholi punktlari tizimiga kirishi tabiiy obyektlarni yanada qulayroq qiladi.

Qashqadaryo viloyati qishloq turizmining imkoniyatlarini baholash maqsadida bizga ma‘lumki, prognozlashning ilmiy tadqiqotlarda o‘rni juda keng va fundamental ahamiyatga ega. U nafaqat kelajakdagi natijalarni bashorat qilish, balki nazariyalarni tasdiqlash hamda baholash va tizimlarning dinamikasini tushunish uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Prognozlash (bashorat) ilmiy metodning ajralmas qismi bo‘lib, har qanday aniq fan yoki ijtimoiy fanda empirik tadqiqotlarning asosiy bosqichi hisoblanadi.



3-rasm. 2016 yildan 2030 yilgacha Qashqadaryo viloyatiga kelgan xorijiy sayyohlar sonining nisbatan barqaror o‘sishi.

Har qanday ilmiy nazariya muayyan sharoitlarda qanday natija kutilishini bashorat qilishi kerak. Agar model yoki nazariya bergan prognoz haqiqiy dunyo ma‘lumotlari bilan mos kelsa, bu nazariyaning to‘g‘riligini tasdiqlaydi yoki uning haqiqatga yaqinligini ko‘rsatadi. Prognoz ARIMA modeli yordamida amalga oshirildi.

Grafikda 2016-2030 yillar oralig‘ida Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni nisbatan barqaror o‘shish kuzatilgan. Bu davrda ko‘rsatkichlar o‘rtacha o‘shish sur‘atini saqlagan bo‘lib, turizm infratuzilmasining bosqichma-bosqich rivojlanishi, hududning madaniy merosi va tabiiy resurslarining targ‘iboti

bilan izohlanadi. Shu bilan birga, 2020-2022 yillarda pandemiya omili tufayli o'sish sur'atida pasayish kuzatilgan, bu global turizm oqimlaridagi umumiy inqiroz bilan bog'liq. 2023 yildan boshlab xorijiy turistlar soni bo'yicha prognozlar sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda. Grafikda prognoz qiymatlari qizil chiziqlarda ifodalangan bo'lib turizm sohasida kutilayotgan intensiv rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Bu o'sish quyidagi omillar bilan bog'liq:

- Turizm infratuzilmasining kengaytirilishi (mehmonxonalar, transport, servis xizmatlari).

- Hududiy va xalqaro darajadagi targ'ibot kampaniyalari.

- Viza rejimining soddalashtirilishi va turizmga oid qonunchilikdagi o'zgarishlar.

- Mahalliy boshqaruv organlarining turizmni strategik rivojlantirishga qaratilgan siyosati.

Ichki turizm - milliy iqtisodiyotning barqaror segmenti bo'lib, hududiy rivojlanish, madaniy merosni saqlash va mahalliy infratuzilmani mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan ichki turistlar sonining 2016-2030 yillar oralig'idagi statistik ko'rsatkichlari va prognozlari mazkur hududda turizm salohiyatining o'sish dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Qashqadaryo viloyatida ichki turizmning 2016-2030 yillar oralig'idagi dinamikasi hududiy turizm salohiyatining izchil o'sishini ko'rsatadi. Haqiqiy ma'lumotlar pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonini aks ettirsa, prognoz ko'rsatkichlari kelajakda ichki turizmning yanada faollashishini bashorat qiladi. Bu esa viloyatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Istiqbollari haqida so'z boradi. Ayni paytda viloyatda ko'plab mehmonxonalar qurilmoqda, ayniqsa, xususiy turistik mehmonxonalar soni ortib bormoqda, jumladan, 2020 yilda viloyatda 54 ta mehmonxona (2019 yilda 47 ta, 1297 o'rinli) va 2014 yilda esa 76 ta 2469 o'rinli mehmonxona qurildi, natijada mehmonxonalar soni bo'yicha yuqori salohiyatli hududlarga Qarshi (25) va Shahrisabz (11) shaharlari, o'rta salohiyatli hududlarga Shahrisabz (14), Kitob (10) va Yakkabog' (10), past salohiyatli hududlarga Qamashi, Nishon, Mirishkor Kasbi va boshqa tumanlar o'rtachadan past bo'lgan tumanlar kiradi. Potensial past va o'rtachadan past bo'lgan hududlarda davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlik subyektlarini jalb etish orqali mehmonxonalar qurish va turistik xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadga muvofiqdir.

Qashqadaryo viloyatida 2022-yilda jami 243 ta (2020-yilda 47 ta) oilaviy mehmon uylari tashkil etilgan bo'lib, ularning soni jadal sur'atlar bilan ko'paymoqda, yil davomida mehmon uylari soni 26 taga ko'paydi, oilaviy mehmon uylari soni 186 ta xona va 396 o'rinni tashkil etdi.

Shahrisabz shahri (37) va boshqa viloyatlar, jumladan, Qarshi shahrida 6 ta, Shahrisabz tumanida 2 ta, Kitob va Chiroqchi tumanlarida 1 ta mehmon uylari va aksincha, qolgan hududlarda birorta mehmon uyi tashkil etilmagan. O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, viloyat turizmning strategik yo'nalishi sifatida qishloqlarning sayyohlik imkoniyatlari, ziyorat turizmi, agroturizm, gastronomik turizm, ekoturizm muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

XULOSA

1. Qishloq turizmi qishloqni ekologik toza bo'lgan muhiti *ekoturizmni*, qishloq turmush tarzi *etnoturizmni*, xo'jalik faoliyati esa *agroturizmni* hududiy tashkil etishga xizmat qiladi.

2. Qishloq xo'jaligi ancha murakkab tizim bo'lib, bevosita "tor" ma'nodagi qishloq xo'jaligidan tashqari qator sohalarni qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan qishloq xo'jaligini jahon xo'jaligi, xalq (milliy) xo'jaligi kabi iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishini alohida taksanomik birligi yoki bo'g'ini sifatida keng ma'noda etirof etildi.

3. O'zbekiston vohasi qishloqlari madaniy meros, tabiiy go'zallik va mahalliy aholining mehmondo'stligining o'ziga xos uyg'unligini ifodalaydi, bu esa tabiat bilan uyg'unlikni topishga, ushbu ajoyib mintaqaning madaniyati va an'alarini o'rganishga intilayotgan sayyohlar uchun jozibador qiladi. Jahon turizm tajribalari asosida mamlakatimizda zamonaviy turizmning milliy konsepsiyalari yaratilmoqda.

4. Qashqadaryo viloyati qishloqlarining geografik joylashuviga ko'ra turistik rayonlashtirish 3 ta turistik rayonga ajratilgan. Qashqadaryo qishloq turizm rayonlari sharqiy (Qashqadaryo viloyatining tog' va tog'oldi sharqiy qismi), markaziy (Chiroqchi, Ko'kdala, Qarshi shahri, Qarshi, Nishon, Kasbi tumanlari) va g'arbiy (Mirishkor, Muborak, Koson tumanlari) kabi turistik rayonlarga iborat bo'lib asosan bu hududda joylashgan turistik imkoniyati yuqori qishloqlar olingan.

5. Qashqadaryo qishloqlari turizm resurslariga boy bo'lib, ulardan samarali foydalanishda turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish, transport xizmatini yaxshi yo'lga qo'yish, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish asosiy omil hisoblanadi.

6. Qashqadaryo qishloq turizmi muammolarini tadqiq etish bo'yicha qilinadigan chora-tadbirlarni aniq tabaqalashgan holda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

7. Qashqadaryo viloyatining ziyorat turizmi imkoniyatlari katta bo'lib, ulardan samarali foydalanish viloyat turizm istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, viloyatdagi qishloqlarda joylashgan o'ndan ortiq ziyoratgohlarni, xususan, Hazrati Bashir ziyoratgohi, Langar ota ziyoratgohi kabilarni xalqaro turistik marshrutlar yo'nalishiga kiritish zarur.

8. Qishloqlarning turizm imkoniyatlari Qashqadaryo viloyatida deyarli o'rganilmagan sohalardan biridir. Shuning uchun ushbu turizm sohasini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Birinchi, qishloq joylari majmualiy turizm tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati misolida xorij tajribalarini o'rgangan holda qishloq turizmi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borildi;

Ikkinchi, qishloq turizmi tasnifiy belgilari va ixtisoslashuviga ko'ra guruhlashtirildi;

Uchinchi, viloyat qishloq joylari turistik xaritalari ishlab chiqildi;

To'rtinchi, viloyatda istiqbolli hisoblangan qishloqlarni turistik marshrutlarga kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

НОРМАТОВ СУННАТ АХМАДОВИЧ

**ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО
ТУРИЗМА КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

11.00.02 – Экономическая и социальная география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером под № В2025.1.PhD/Gr367.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.samdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Усманов Маъруфджан Рустамович
доктор географических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Комилова Нилуфар Каршибаевна
доктор географических наук, профессор

Жумаев Хайрулло Хаётович
кандидат географических наук, доцент

Ведущая организация:

Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится 18 апреля 2026 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 при Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, ул.Бустансарай, дом 93. Тел.(99)776-77-25, факс: (0366) 239-16-36; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова (зарегистрирована под № _____). Адрес: г. Самарканд, проспект Университетский бульвар, 15. Тел: (+99866) 233-60-87.

Автореферат диссертации разослан 4 апреля 2026 года.
(Реестр протокола рассылки № 6 от 26 марта 2026 года)



С.Б. Аббасов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.г.н., профессор

Б.А. Мелиев

Ученый секретарь, Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по географическим наукам (PhD), доцент

В.А. Рафиков

Заместитель председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней доктор географических наук (DSc) профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современных условиях ускорения процессов глобализации в мире перед государствами встаёт задача создания возможностей для решения важных социально-экономических вопросов посредством развития туристической отрасли. По данным Всемирной туристской организации (UNWTO) и Всемирной торговой организации (WTO), в 2023 году объём экспорта услуг в сфере международного туризма в мире составил 1,4 триллиона долларов¹. Данная отрасль занимает ключевое место в национальных экономиках многих стран мира, выступая важным источником дохода. В условиях глобализации туризм уже не ограничивается лишь сферой отдыха и развлечений людей, но также приобретает значительное значение в политическом, социальном и экономическом развитии государств. Это, в свою очередь, требует разработки стратегий устойчивого развития сельского туризма.

Мировые исследования в данном направлении в основном сосредоточены на изучении специфики природы регионов, а также на значении основных рекреационных ресурсов в туризме, расположенных в горных, предгорных и равнинных территориях, вдоль рек, в пустынях и оазисах, а также в различных ландшафтных зонах. В этом отношении регионы обладают значительными возможностями для развития отрасли благодаря имеющемуся экологическому, агротуристическому, этнографическому, культурному, историческому и природному наследию.

В настоящее время придается приоритетное значение проведению комплексных исследований, направленных на ускоренное развитие туристической отрасли в сельских районах, создание новых рабочих мест, повышение доходов и уровня жизни населения, а также обеспечение роста инвестиционной привлекательности страны. В нашей республике осуществляется ряд работ и мероприятий, направленных на развитие сервисных услуг и их видов в сфере туризма, а также на развитие туризма в регионах с учётом туристической привлекательности и возможностей каждого из них.

В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №ПФ-60 «Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» определены важные задачи, такие как ускоренное развитие туристической индустрии, повышение её роли и доли в экономике, улучшение качества и расширение предложения туристических услуг, развитие туристической инфраструктуры, а также обеспечение проживания населения в экологически безопасной среде.² В этой связи особую актуальность приобретает исследование экотуристических возможностей горных и предгорных ландшафтов бассейна Кашкадарьи, отличающихся разнообразными природными условиями и геосистемами.

¹ <https://www.untourism.int/ru/events>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

